

## XALQARO INVESTITSIYA HUQUQINING EVOLYUTSIYASI VA UNING ENERGETIKA SOHASIDA QO'LLANISHI

Suyarova Madina Qahramonovna

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

e-mail: kaxramanovnam@gmail.com

**Annottatsiya:** Maqolada Xalqaro investitsiya huquqining tarixi, uning evolutsiyasi, xalqaro shartnomalarning qabul qilinishi, ikkinchi jahon uruhidan keyin jahon iqtisodiyoti , energetika sohasida davlat hamjamiyati tomonidan imzolangan asosiy xalqaro huquqiy hujjatlar va investor davlatlar bilan imzolangan shartnomalar, energetika sanoati, energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarining ahamiyatini oshirish haqida so'z yurutiladi.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, evolutsiya, Xalqaro energetika xartiyasi, energetika sohasidagi hamkorlik, xalqaro munosabatlar

## ЭВОЛЮЦИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО ПРАВА И ЕГО ПРИМЕНЕНИЕ В ОБЛАСТИ ЭНЕРГЕТИКИ

Suyarova Madina Kakhramonovna.

студентка Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация:** В статье рассматривается история международного инвестиционного права, его эволюция, принятие международных договоров, мировая экономика после Второй мировой войны, основные международно-правовые документы, подписанные государственным сообществом в сфере энергетики и соглашения, подписанные с страны-инвесторы, энергетика, повышение эффективности использования энергоресурсов, в связи с чем идет речь о повышении значения возобновляемых источников энергии.

**Ключевые слова:** инвестиции, эволюция, Международная Энергетическая Хартия, энергетическое сотрудничество, международные отношения

## EVOLUTION OF INTERNATIONAL INVESTMENT LAW AND ITS APPLICATION IN THE ENERGY FIELD

Suyarova Madina Kakhramonovna

student of Tashkent State Law University

**Abstract:** The article discusses the history of international investment law, its evolution, the adoption of international agreements, the world economy after the

Second World War, the main international legal documents signed by the state community in the field of energy and the agreements signed with investor countries, the energy industry, improving the efficiency of the use of energy resources, re there is talk about increasing the importance of renewable energy sources.

**Key words:** investment, evolution, International Energy Charter, energy cooperation, international

## KIRISH

Ma'lumki, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish har bir mamlakatning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bu iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotni rivojlantirishni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Juhon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlatda faol investitsiya siyosati bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan bo'ladi. Shu sababli ham investitsiya bu – iqtisodiyotning yuragidir. Albatta – barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, aholi turmush darajasini yaxshilashda xorijiy investitsiyalarning roli katta.

Xalqaro investitsiya huquqi eng yaxshi xalqaro ommaviy huquq sohasi hisoblanib, u o'z ichiga xorijiy mamlakatlarda amalga oshiriladigan ko`p tarmoqli korxonalarining tijorat faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarni qamrab oladi. Xalqaro investitsiya huquqi xalqaro huquqning eng qadimgi sohalaridan biri bo`lib, dastlabki davrda, ya`ni XX asrning ikkinchi yarmigacha nisbatan rivojlanmagan, keyinchalik globallashuv bilan birgalikda o`sib borgan. XIX -XX asrlarga kelib asta sekin chet elga sarmoya kiritishning asosiy huquqiy asoslari yaratila boshlandi. Bosqichli rivojlanishning nazariy muammolarini o`rganish xalqaro investitsiya huquqining murakkab muammolarini yaxshiroq tushunishga yordam berdi. XX asrning ikkinchi yarmidan xorijiy investitsiyalarni tartibga solish bir-biri bilan chambarchas bog`liq va o'zaro bog`liq bo`lgan ikkita jarayon sifatiada parallel ravishda amalga oshirilgan. Hozirgi paytda, prinsipial muhim doktrinal yondashuv xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlarni shakllantirish orqali xorijiy investitsiyani himoya qilishning asosiy usullaridan hisoblanadi.

Xalqaro investitsiya XXI yoki XX asrgagina xos jarayon emas. Davlatlar miloddan avvalgi davrlarda ham to'g'ridan-to'g'ri investitsilarni o'zga davlat hududiga kiritishgan. Investitsiyalar butun tarix davomida va butun dunyoda yuzlab yillar davomida sodir bo`lgan katta evolyutsiyani qamrab oladigan iqtisodiy jarayondir.

Investitsiyalarining eng qadimgi namunalaridan biri bo`lgan Finikiyaliklar svilizatsiyasi - miloddan avvalgi 1500-yilda, hozirgi Isroil va Falastin hududida rivojlangan. Finikiyaliklar yunonlar bilan kemada savdo qilishgan va Sharqiy O'rta Yer dengizi atrofida to'qimachilik va yog'och mahsulotlarini sotishlari mumkin bo`lgan postlar qurishgan. Finikiyaliklarning O'rta yer dengizi sohillarida savdo aholi

punkitining mavjud bo'lishi G'arb alifbosining ajdodi bo'lgan Finikiya alifbosining tarqalishiga zamin yaratgan, albatta bu investitsiyalanayotkan davlatning iqtisodiy o'sishiga ham bir imkon bo'lgan. Oradan bir necha asr o'tgach savdo va investitsiya yanada rivojlana boradi va bu quruqlikda ham markazlashgan, savdogarlar va tijoratchilar uchun qulaylik yaratadigan savdo yo'llariga ehtiyoj tug'uladi, natijada Yaqin Sharq va Tinch okeani o'rtasida Osiyo bo'ylab 6000 km dan ham ortiq masofaga cho'zilgan Buyuk Ipak Yo'lining quruqlikdagi savdo yo'llari o'rnatildi. Savdo aloqalari hosil bo'lishiga Markaziy Osiyo tog'larida yarim qimmatbaho toshlar — Sharqda nihoyatda qadrlangan lazurit, nefrit, aqiq, feruzalar qazib chiqariladigan konlarni topib, qazib olish ko'p jihatdan ko'maklashgan. Muhimi, bu tijoriy munosabatlar ko'pincha uzoq vaqt davomida xorijiy davlatlarda faoliyat yuritadigan savdo agentlari orqali til va madaniyatni almashishni ham o'z ichiga qamrab olgan.

XV asrdan boshlab Yevropa va Xitoy, shuningdek, Hindiston o'rtasida ziravorlar va choy kabi ekzotik mahsulotlarni o'z ichiga olgan keng trans-okean savdosi paydo bo'ldi. Port shaharlar tijorat faoliyatining asosiy yo'naliishiga aylandi va pul kemalarni qurish va ta'mirlashga tobora ko'proq yo'naltirildi. Dengiz orqali savdo yuk tashish faoliyatini xorijiy investitsiyalarning dastlabki shakli sifatida ko'rish mumkin. O'sha paytdagidek, investitsiyalangan davlatlarda infratuzilmani yaratish to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar bilan bog'liq asosiy imtiyozlardan biri bo'lib qolmoqda.

XV asr va undan keyingi davrda G'arbiy Yevropa davlatlari ilgari savdo missiyalari bilan borgan joylarda doimiy mustamlakalar tashkil eta boshladilar. Gollandiyaning Sharqiy Hindiston kompaniyasi 1602-yilda Indoneziyada tijorat faoliyatini amalga oshirish uchun, xususan, qalampir kabi ziravorlarni tashish bilan bog'liq holda tashkil etilgan. U dunyodagi birinchi transmilliy korporatsiya sifatida ta'riflanadi. Ispaniya va Portugaliya ham XVII asrning o'rtalariga kelib, qisman oltin vasvasasi tufayli Janubiy va Markaziy Amerikaga joylashishni boshladilar. O'sha paytdagi Yevropa kuchlari tomonidan qo'llanilgan mustamlakachilik amaliyoti kam rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lgan mo'l resurslar va ba'zi hollarda arzon ishchi kuchidan foydalanishning iqtisodiy maqsadiga asoslangan edi. Chet el investitsiyalari va xorijdagi savdo faoliyati natijasida olingan boyliklarning o'zi yirik Yevropa davlatlarining yer egallashi va hududiy suverenitetini kengaytirish siyosiy maqsadini ro'yobga chiqargan, chunki mustamlakalardan olingan boyliklar, ayniqsa oltin va kumush o'z mamlakatini boyitib, o'z navbatida armiyalar va dengiz flotlar uchun ko'proq mablag' ajratish imkonini bergen. Zamonaviy To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning ijobiyligi tomoni sanoat dunyosidan resurslarga boy rivojlanayotgan davlatlarga texnologiya va infratuzilmani qo'llashga qaratilgan bo'lgani kabi, mustamlakachilik texnologiyadagi nomutanosiblik tufayli amalga oshdi. Bu tushuncha ko'plab Yevropa davlatlari va ularning mustamlakalari o'rtasida tuzilgan shartnomalarda do'stlik, savdo va dengizchilik to'g'risidagi shartnomalar sifatida

mustahkamlanib bordi. Xususan, AQSh tomonidan keng qo'llanilgan ushbu dastlabki shartnomalar nafaqat investitsiyalar va savdo, balki immigratsiya, soliqqa tortish va bugungi kunda biz inson huquqlari deb tushunadigan masalalarning keng doirasini qamrab olgan.

Tez-tez kuch ishlatsa-da, lekin ko'p hollarda nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish orqali mustamlakachilik XIX asrning oxirlarida tarqala boshladi. Birinchi jahon urushidan keyin Ispaniya imperiyasi, keyin Germaniya, Usmonli va Rossiya imperiyalari, ikkinchi jahon urushidan keyin esa Britaniya va Fransiya kabi Yevropaning boshqa mustamlaka kuchlari tarqalib ketdi. Mustamlaka boshqaruvidan xalos bo'lgan Osiyo va Afrikaning yangi mustaqil davlatlari birin-ketin xalqaro hamjamiyatda paydo bo'ldi. Ular siyosiy mustaqillikka erishib, rivojlangan mamlakatlar bilan siyosiy tenglikka ega hisoblansalar-da, iqtisodiy jihatdan sust darajada edilar. Ushbu rivojlanayotkan mustaqil davlatlar Shimol va Janub o'rtaсидаги rivojlanish farqini bartaraf etish uchun iqtisodiy erkinlikka intildilar. Bu yo'lda ular o'z mamlakatlarini rivojlantirish uchun xorijiy sarmoyani jalb etadilar va o'z tabiiy resurslarini milliyashtirdilar. Urushdan keyingi iqtisodiyot uchun keng tashkiliy asos yaratish zarurati sezildi va 1948-yilgi Gavana Xartiyasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'yicha xalqaro tamoyillarni shakllantirishga birinchi urinish bo'ldi, u asosan xalqaro savdo bilan shug'ullanadigan Xalqaro savdo tashkilotini ham tuzdi. 1948- yildagi Gavana Xartiyasining 12-moddaga muvofiq "iqtisodiy rivojlanish va rekonstruksiya ijtimoiy taraqqiyotga ko'maklashishda katta ahamiyatga ega" deya xalqaro investitsiyalarning zarurligi va ahamiyatini tan oldi . Investitsion shartnomalar iqtisodiyotni rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan.

Ammo an'anaviy xalqaro iqtisodiy tartib rivojlangan davlatlar modeliga moslashtirilgan edi. Rivojlanayotkan davlatlar esa bunday holatda faqat bo'ysunuvchi ro'lini o'ynashlari mumkinligini va Shimol va Janub o'rtaсидаги tafovutni faqat kapitalni oshirish hisobiga bartaraf etib bo'lmashagini tushuna boshladilar. 1964-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jenevada bo'lib o'tgan Savdo va rivojlanish konferensiysi (UNCTAD) da rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtaсида qo'llaniladigan yangi savdo priniplari ilgari surildi. Ushbu prinsiplar rivojlanayotgan mamlakatlar mahsulotlariga bir tomonlama umumiy preferensiyalarni joriy qilish, eksport oqibatida yuzaga keladigan daromaddagi yo'qotishlarni qoplash va moliyalashtirish tizimini yaratishga asoslangan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning tabiiy zaxiralarini milliyashtirishga asoslangan da'volari 1980-yillar o'rtalarigacha BMTda ustivorlik qiladi. Bu o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipining iqtisodiy jihatlari, tabiiy boyliklar va zaxiralar ustidan doimiy suverenitetini e'tirof etishni anglatar edi.

1990-yilga kelib mamlakatlar iqtisodiyot sohasini yanada rivojlantishda o'zida mavjud energiya manbalarini ayrboshlay boshladilar bu orqali iqtisodiyot yaxshigina

rivojlanishi va bu sohadan keladigan daromad moliyaviy tarafdan yaxshilanish mumkinligini tushuna boshladilar. Energetika sohasida hamkorlikni xalqaro huquqiy tartibga solish instituti evolyutsiyasi haqida gapirganda, quyidagi asosiy tarixiy voqealarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

1990 yilda Dublinda bo'lib o'tgan Yevropa Kengashi yig'ilishlari odatda "yagona energiya makonini" shakllantirish uchun boshlang'ich nuqta sifatida qabul qilinadi. Dublindagi yig'ilishlarning birida o'sha paytda bosh vazir bo'lgan Rud Lubbers Niderlandiya "Yevropa energetika hamjamiyatini" tuzishni taklif qildi. Hamkorlikni rivojlantirishning fundamental huquqiy va tashkiliy asosi sifatida Yevroosiyo va undan tashqaridagi davlatlar o'rtaida energiya sohasida aynan R.Lyubbers tashabbusi tufayli 1991-yilda Yevropa hamjamiyatlari komissiyasi energiya sohasida hamkorlikning eng samarali variantlarini ko'p tomonlama tahlil qildi. Davlatlar, Energetika Xartiyasi konsepsiyasini taklif qildilar. Ushbu hujjat loyihasini muhokama qilish 1991-yil davomida bir nechta konferentsiyalarda bo'lib o'tdi va o'sha yilning dekabr oyida G'arbiy Evropa davlatlarining ko'pchiligi tomonidan Nizom imzolanishi bilan Gagada yakunlandi. Davlatlar, Yevropa Ittifoqi (alohida tomon sifatida) va boshqa davlatlar, shu jumladan O'zbekiston, Turkiya, Kanada, Avstraliya, AQSh va Yaponiya. Unda umumiyl tamoyillar, maqsadlar va pozitsiyalar shakllantirildi. Ushbu hujjatni imzolagan tomonlar o'rtaida energiya hamkorligini kengaytirish iqtisodiy taraqqiyotning zaruriy sharti va kengroq ma'noda ijtimoiy rivojlanish va hayot sifatini yaxshilash ekanligiga ishonch hosil qilish, energiya ta'minotining ishonchlilagini va resurslarni samarali boshqarish va ulardan foydalanishni ta'minlash, energiya ta'minoti ishonchliligi va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun energiya ishlab chiqarish, o'zgartirish, tashish, taqsimlash va ulardan foydalanish sohasida samarali energiya tizimlarini yaratishning muhim ahamiyatiga ishonch hosil qilish, davlat suvereniteti va energiya resurslariga bo'lgan suveren huquqlarni tan olish va yana boshqa prinsip va shartlar hujjatda batafsil ko'rsatildi.

Ishtirokchi davlatlarning energetika sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash va rivojlantirish bo'yicha yana bir muhim shartnomasi imzolaydilar. Bu tarixiy voqe 1994 yilda Lissabonda Energiya Xartiyasi Shartnomasining imzolanishi edi. Shartnomasi Xartianing deklarativ-siyosiy tabiatidan farqli o'laroq, yuridik jihatdan majburiy bo'lgan ko'p tomonlama shartnomasi edi. Shartnomasi tamoyillariga sodiq qolgan barcha davlatlarning qo'shilishi uchun ochiq edi. Shu munosabat bilan, Energetika Xartiyasi Kotibiyati Bosh kotibi Riya Kemper 2004 yil sentyabr oyida shunday dedi: "... Xitoy, Eron, Koreya kabi davlatlar va ASEAN davlatlari Xartiya jarayoniga katta qiziqish bildirmoqda va shu bilan geografik qamrovini yanada kengaytirishga keng imkoniyat ochmoqda»

Shartnomasi va Protokol investitsiyalarni tartibga solishning yagona huquqiy platformasini yaratdi energetika sohasida ishlab chiqaruvchi davlatlar, iste'molchilar

va tranzit mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik energiya, tranzit erkinligi tamoyillariga muvofiq, kamsitmasdan energiya tranzitini osonlashtirish, energiya samaradorligini oshirish, nizolarni hal qilish mexanizmlari va tartiblarini shakllantirish. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 22 dekabrdagi 192-I-sonli "energiya Xartiyasiga shartnomani va energiya samaradorligi masalalari va 1995-yil aprel oyida Lissabonda imzolangan energetika Xartiyasiga Protokolni ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qarori bilan ratifikatsiya qilingan. (O'zbekiston Respublikasi uchun 1998-yil 16-aprelda kuchga kirdi)

Shartnoma energiya materiallari va mahsulotlari va ular bilan bog'liq uskunalar, texnologiyalar va xizmatlar savdosidagi texnik, ma'muriy va boshqa to'siqlarni astasekin yo'q qilishga qaror qildi. Energiyani qidirish, ishlab chiqarish, o'zgartirish, saqlash, tashish, taqsimlash va ulardan foydalanishning eng samarali usullari zarurligini tan olish, Birlashgan Millatlar tashkilotining iqlim o'zgarishi to'g'risidagi asosiy konventsiyasini, uzoq masofali transchegaraviy havoning ifloslanishi va unga oid protokollarni va energiya bilan bog'liq jihatlarga oid boshqa xalqaro atrof-muhit shartnomalarini eslatib, atrof-muhitni muhofaza qilish chorralari, shu jumladan chiqindilarni yo'q qilish, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun xalqaro miqyosda kelishilgan vazifalar va mezonlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib borayotganini tan olish yuzasdan shartnomani imzolashdi.

Asosiy g'oyasi energiya samaradorligini oshirish, energiya aylanishining davlatlarda atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan ishslashning ustuvorligini belgilash bo'lgan Protokoldan farqli o'laroq, Shartnoma mohiyatan keng doiradagi ko'p tomonlama investitsiya shartnomasidir.

Ushbu shartnomning belgilanshiga asosiy sabablardan biri Yevropa davlatlarining belgilangan geografik joylashuvi edi. Ha, G'arbiy Yevropa sanoatni ta'minlash uchun energiya resurslari yetarli emas edi. Sharqi Yevropa mamlakatlari - birinchi navbatda sobiq Sovet respublikalari Ittifoq - bu resurslarning boy zaxirasiga ega edi. Bu vaziyatni hisobga olgan holda masalalarni xalqaro muvofiqlashtirish maqsadida va Shartnoma yordamida barqaror, iloji boricha, bir tomonidan iste'molchi davlatlar uchun ham, boshqa tomonidan ishlab chiqaruvchi va tranzit mamlakatlar uchun energiya almashinuvi va undan foydalanish bo'yicha hamkorlik iqtisodiy va ijtimoiy tomonidan davlatlarga foyda edi.

Bugungi kunda yurtimizda energetika sohasi bo'yicha ko'plab loyhalar amalga oshirilib, yirik investitsion shartnomalar imzolanmoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatimizda yilning 330 kuni quyoshli bôladi. Bu esa bizga yuqori hajmda elektr energiyasini qayta ishlab chiqarish imkonini beradi. Shundan imkoniyatlarni hisobga olgan holda Respublikamizda hozirgi paytda Fors kôrfazi mamlakatlaridan milliardlab dollar jalb qilmoqda. Bundan kôzlangan maqsad asrimizning 30-yillarga kelib elektr energiyasini qayta ishlab chiqarish hajmini 35

foizga yetkazish ekanligiga tom ma'noda elektr energiyasi sohasida ustuvor reja sifatida qaralmoqda. Yuqoridagi bir qancha vaziyatlar, mamlakatimizdagi elektr energiyasini qayta ishlab chiqarishga bo`lgan imkoniyatlarning mavjudligi , Saudiya Arabistonida joylashgan Acwa Power kompaniyasining mamlakatimizga yuqori hajmda investitsiya jal qilishishiga undadi. Umumiy qiymati 2.5 milliard dollarlik bitimlar doirasida, 1,4 GVt bo`lgan uchta quyosh loyihasi va 1,5 GVt soat qo`shimcha quvvatni jalg qiluvchi uchta elektr energiyasini saqlash tizimini ishlab chiqishga kelib olindi. Yana bir muhim jihatni e'tiborga olsak, Xalqaro qayat tiklanadigan energiya agentligi ma`lumotlariga ko`ra, 2022-yilda qayta tiklanadigan energiya manbalarining deyarli yarmi Osiyoda joylashgan. Energetika loyihamalariga jami, 7.5 milliard dollarlik sarmoyaviy majburiyatlarimiz bilan biz O`zbekistonning energiya diversifikatsiyasi maqsadlariga erishishda asosiy hamkor bo`lib qolishga qat'iy qaror qildik deya ta`kidlab o`tdi, Acwa Power kompaniyasining raisi Muhammad Abunnay. Zavodlar qurilishi yakunlangach, 2025-2026-yillarga uchinchi choragida tijorat maqsadlarida foydalanishga topshirilishi kutilmoqda.

### Xulosa

Bugungi kunda barcha mamlakatlar iqtisodiyotini va shu orqali sanoat, ijtimoiy, energetika va boshqa sohalarini yanada rivojlantirish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni qidirmoqdalar. Shunday qilib, ular milliy va xalqaro siyosat vositalari orqali bunday investitsiyalarni ilgari surish va himoya qilishga katta qiziqish bildirdilar. Ushbu sa'y-harakatlarning bir qismi xalqaro investitsiya shartnomalari, ikki tomonlama investitsiya shartnomalari, Erkin savdo shartnomalari va xorijiy investitsiyalarni ilgari surish va himoya qilishning mustahkam milliy asoslarini qabul qilishni o'z ichiga oladi. Bunday investitsiyalarni jalg qilish, birinchi navbatda, alohida mamlakatlarda iqtisodiy, tartibga soluvchi va investitsiyalarni ilgari suruvchi omillar mavjudligini va shu bilan birga hukumatlar va xorijiy investorlarning munosabatlari bilan shug'ullanadigan xalqaro asoslarni talab qiladi. Investitsiya qonunchiligi ushbu ikki aktyor o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun aniq qoidalar va mos mexanizmni ta'minlashi kerak. Hukumatlar milliy investor-davlat mojarolarini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishi mumkin, bu hukumatlar va investorlarga o'zlarining shikoyatlarini to'liq huquqiy nizolarga aylanishidan va xalqaro tribunallarni ko'chirishdan oldin ichki darajada hal qilishga imkon beradi. Ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan yana bir yirik islohot apellyatsiya mexanizmini yaratishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalqaro investitsiya qonuni barcha iqtisodiyotlarni xalqaro investorlar uchun yanada jozibador bo'lishiga yordam berish va ma'muriy va huquqiy yordam ko'rsatish orqali teng o'yin maydonini yaratishga yordam berish uchun xalqaro yordam ko'rsatishi kerak. Ikki tomonlama investitsiya shartnomalari va investitsiya bitimlarini muhokama qilishda rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berishga alohida e'tibor qaratish lozim.

## REFERENCES

1. Xalqaro energetika xartiyasi-1994-yil
2. Yevropa energiya xartiyasi-1991-yil
3. Devid Kollins. Xalqaro investitsiya huquqiga kirish.- Buyuk Britaniya.:2017
4. Akira Mayama. Xalqaro visual huquq.-Yaponiya.: -2021
5. <https://daryo.uz/2023/04/03/ozbekiston-energetika-sohasida-milliardlab-investitsiyalarni-jalb-qilmoqda>
6. <https://lex.uz/docs/2667035/1991-yil Yevropa energiya xartiyasi>